Xalqaro tijorat arbitrajida yurisdiksiyani aniqlash

Abdumutalova Durdona Dilshodjon qizi

Toshkent davlat yurisik universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitrajida yurisdiksiyani aniqlash shartlari va tartibi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Arbitraj, yurisdiksiya, arbitraj kelishuvi, xalqaro tijorat, ratione temporis.

Bir qarashda unchalik kata ahamiyatga ega emasdek tuyuladigan yurisdiksiya masalasi, aslida, butun boshli ishning taqdirini hal qilishga qodir. Shuning uchun ishni mazmunan ko'rish tarafning foydasiga hal bo'lmasligi ehtimoli bor hollarda shu taraf yurisdiksiya masalasida tortishadi. Umuman olganda, arbitrajda yurisdiksiya bo'lmagan taqdirda ham ish albatta boshqa sudda ko'rib chiqiladi, lekin bu taraflarni qoniqtirmasligi mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda yurisdiksiya sabab ishda yutqazilgan holatlar ham ko'p uchramoqda. Shu boisdan ham aynan yurisdiksiya mavzusi juda muhimdir.

Yurisdiksiya har bir sud uchun alohida tushuncha, ya'ni har birining bu borada alohida talablari mavjud. Xalqaro tijorat arbitrajlari yurisdiksiyaga ega bo'lishi uchun ham umumiy ham maxsus qoidalar mavjud. Umumiy talab 1958 – yilgi Nyu York konvensiyasining 2 – moddasida keltirib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

a) arbitraj kelishuvining mavjudligi va konvensiya talablariga muvofiqligi;
b) nizo mavjudligi;
c) nizo aniq huquqiy munosabatdan kelib chiqqanligi va arbitraj kelishuvi doirasiga kirishi;
d) nrbitraj kelishuvi yozma shaklda bo'lishi;
e) arbitraj kelishuvi bajarib bo'lmas, haqiqiy emas, notog'ri bo'lmasligi;
f) nizo predmeti va asosi arbitrajda hal etib bo'ladigan bo'lishi.

Har bir talab xalqaro tijorat arbitraji uchun alohida masala, lekin aynan yurisdiksiya mavjud deb topilishi uchun ularning barchasi bo'lishi lozim. Quyida ularning har biriga birma – bir ta'rif beriladi.

Arbitraj kelishuvining konvensiyaga muvofiq bo'lishi va unga qo'yiladigan talablarning qaytadan alohida belgilnishiga ham asos mavjud. Chunki konvensiyaga muvofiq deyilganda ayrim umum e'tirof etilgan prinsiplar nazarda tutilgan. Masalan, ratione temporis prinsipi. Bu prorogatsion bitimning vaqt bo'yicha amal qilishidir. Masalan, qaysidir nizoga nisbatan shartnoma agar u kuchga kirishidan avval vujudga kelsa qo'llanilmasligini anglatadi. Demak, arbitraj kelishuvining bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, agar yuqoridagi prinsip buzilsa, arbitrajda yurisdiksiya yo'q deb hisoblanadi.

Arbitraj kelishuvi faqatgina nizo paydo bo'lganda va tarflardan biri uni arbitrajda hal etishga kelishgan taqdirdagina qo'llaniladi. Shuning uchun ham u yurisdiksiya talablaridan biridir.

Nizo kelishuv doirasiga kirishi ham juda muhimdir. Taraflar o'rtasida nizo vujudga keldi va ularning o'rtasida ikkita shartnoma mavjud bo'lib, birinchisida arbitraj kelishuvi mavjud, ikkinchisida esa yo'q bo'lgan holatda, agar nizo ikkinchi shartnoma doirasida kelib chiqsa, birinchi shartnomada keltirilgan kelishuvni ushbu nizoga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.

Gary Bornning fikrlariga ko'ra, arbitraj kelishuviga xalqaro shartnomalarga qo'llaniladigan qoidalar qo'llaniladi. Shunday ekan ular yozma shaklda, haqiqiy, to'g'ri va bajarib bo'ladigan bo'lishi lozim. Bunga boshqa asoslar ham mavjud. Masalan, agar kelishuv yozma shaklda tuzilmasa, uning mavjudligini isbotlash taraflarga muammo tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari, yuqorida aytilganidek yurisdiksiya ko'p narsani hal etgani uchun, taraflarda yolg'on, majburlash va boshqa yo'llar orqali arbitraj kelishuvini tuzish hollari kuzatilishi mumkin. Yurisdiksiya talablarida haqiqiylik masalasining borligi bunday kelishuvlar orqali ishni arbitrajda mazmunan ko'rishning oldini oladi. Kelishuvning bajarib bo'ladigan holda tuzilishi ham juda muhim. Chunki, mavjud bo'lmagan arbitrajlar, arbitrlar tomonidan ish ko'rilishi belgilangan kelishuvlar ham kuzatilgan.

Gary Born kitobida xalqaro tijorat arbitraji yurisdiksiyaga ega bo'lishi uchun 3 muhim shartni keltirgan: "to'g'ri arbitraj kelishuvi", "tijoriylik", "xalqarolik". Nizoning predmeti deyilganda tijoriylik va xalqarolik masalasi nazarda tutilmoqda. Ya'ni, xalqaro tijorat arbitrajlarida mahalliy nizolar ko'rilmaydi. Bundan tashqari nizo mazmuni tijoriy faoliyat bilan ham bog'liq bo'lishi lozim. Turli tijorat arbitrajlari o'zlarining faoliyat yo'nalishlarini ham belgilab qo'yishlari mumkin.

Yurisdiksiyaga qo'yilgan talablar ko'rib chiqildi. Lekin bu talablarning mavjudligi masalasi kim tomonidan hal etiladi? Bu ham yurisdiksiyaning muhim jihatlaridan biridir. Arbitrajlar davlat sudlaridan mustaqil bo'lganliklari bois, uning yurisdiksiyasi bor yoki yo'qligi davlat sudlari tomonidan aniqlanishi mantiqsizlik hisoblanadi va bu holatda ularning mustaqilligi so'roq ostida qolgan bo'lardi. Demak, arbitrajning yurisdiksiyasi mavjudligi aynan shu arbitraj tomonidan aniqlanadi. Arbitaraj uchun faqatgina arbitraj kelishuvining mavjudligi yurisdiksiya olishga asos bo'ladi. Qolgan shartlar bo'yicha yurisdiksiya borligi tarflar e'tiroz bildirgan hollarda, ular tomonidan isbotlanishi lozim va bu holat arbitraj davomida ko'rib chiqilib, yakuniy qarorda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tijorat arbitraji va amaliyoti. Margaret L.Mozes. Uchinchi nashr.2020 – Toshkent.
2. International commercial arbitration. Gary Born. 2014.
3. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2019 – Toshkent.